



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buyuk
davlat

2026-YIL – MAHALLANI RIVOJLANTIRISH VA JAMIYATNI YUKSALTIRISH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqib boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2026-yil 29-aprel, № 84 (9255)

Chorshanba

Saytimgizni o'tirish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



FARG'ONA IQTISODIY O'SISH, INVESTITSIYA VA INNOVATSIYALAR MARKAZIGA AYLANMOQDA

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 27-28-aprel kunlari ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar jarayonlari bilan tanishish uchun Farg'ona viloyatida bo'ldi.



Prezident Shavkat Mirziyoyev tashrifining ikkinchi kuni Farg'ona shahridagi Investitorlarga xizmat ko'rsatish markazi faoliyati bilan tanishdi.

Farg'ona shahrida tashkil etilgan "Farg'ona Expo", xalqaro ko'rgazmalar markazi faoliyati viloyatning iqtisodiy salohiyatini keng namoyish etish, sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish, eksportni rag'batlantirish va investorlar uchun qulay servis muhitini yaratishga qaratilgan.

Markaz nafaqat ko'rgazma maydoni, balki tadbirkorlar va investorlar uchun yaxlit muloqot maydonchasi vazifasini o'tamoqda.

Besh gektar maydonni egallagan majmua 200 dan ortiq ishlab chiqaruvchi korxonalariga o'z mahsulotlarini namoyish etish imkoniyati yaratilgan.

Yangi barpo etilgan 8 qavatli binoning dastlabki ikki qavatli savdo, investitsiya

va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlovchi tashkilotlar uchun ajratilgan. Yuqori qavatlar esa investorlar va biznes vakillari uchun ofis sifatida taqdim etiladi.

Markazda yil davomida 15 ta tarmoq yo'nalishi bo'yicha doimiy ko'rgazma-yarmarka faoliyat yuritadi. Bu yerda davlat idoralari, ishlab chiqaruvchilar, eksportchilar va investorlar bir maydonda uchrashib, amaliy hamkorlikni yo'lga qo'yish imkoniga ega bo'ladi.

Farg'ona tajribasining samaradorligini inobatga olgan holda bunday zamonaviy ko'rgazma zallarini Toshkent shahri, Buxoro, Jizzax va Samarqand viloyatlarida ham barpo etish rejalashtirilgan.

Prezident Shavkat Mirziyoyevga Farg'ona shahrida investor va tadbirkorlar uchun joriy etilgan "Yagona milliy loyiha boshqaruvi axborot tizimi" platformalari haqida ma'lumot berildi.

Ta'kidlanganidek, "invest.gov.uz" va

"pmi.miit.uz" platformalari mahalliy va xorijiy tadbirkorlarni yagona raqamli maydonda birlashtirib, investitsiya loyihalarini shakllantirish, amalga oshirish hamda monitoring qilish jarayonlarini ochiq va shaffof tashkil etishga xizmat qilmoqda.

Yagona investitsiya platformasi "yagona darcha" tamoyili asosida ishlaydi. U orqali investor hududlarning salohiyatidan kelib chiqib, tayyor investitsiya loyihalarini bilan tanishadi, o'ziga maqbul yo'nalishni tanlaydi va shaxsiy kabinet orqali zarur jarayonlarni kuzatib boradi.

Investor loyiha bo'yicha ishlarni mustaqil yuritishi yoki vakolatli konsultant xizmatidan foydalanishi mumkin. Yuborilgan so'rovlar Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi hamda tegishli vazirlik va idoralar bilan integratsiyalashgan platformada aks etadi. Har bir bosqich bo'yicha muddatlar avtomatik belgilanadi, ijro

mas'ul menejer tomonidan nazorat qilinadi.

Kechikish yoki muammoli holatlar yuzaga kelganda masala Hukumat komissiyasi muhokamasiga kiritilib, tezkor qaror qabul qilinadi. Bunday raqamli yechimlar tadbirkorlar uchun qulaylik yaratib, investitsiya muhitiga bo'lgan ishonchni mustahkamlamoqda.

Farg'ona viloyatida investorlar va konsalting tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlik ham samarali yo'lga qo'yilgan. Bu yangi loyihalarni shakllantirish, ularni moliyaviy va tashkiliy jihatdan puxta tayyorlashda muhim o'rin tutmoqda.

Prezidentga viloyat uchun taklif etilayotgan qator yirik investitsiya loyihalarini taqdim qilindi. Jumladan, Xitoy bilan hamkorlikda "Yevroosiyo xalqaro savdo markazi"ni barpo etish, Janubiy Koreya bilan biopellet ishlab chiqarish va issiqlik energiyasi stansiyasini tashkil etish, Turkiya bilan zamonaviy tibbiyot klasterini shakllantirish rejalari ko'rib chiqildi.

Shuningdek, Fransiya, Ispaniya, Birlashgan Arab Amirliklari va Qatar bilan hamkorlikda aholini sifatlilik ichimlik suvi bilan ta'minlashga qaratilgan yirik infratuzilimiy loyiha taqdim etildi.

Viloyatda 5 yulduzli mehmonxona va zamonaviy kongress-xoll qurish, Quvasoy shahrida yangi formatdagi istirohat bog'ini tashkil etish, elektromobilar uchun akkumulyator ishlab chiqarish kabi istiqbolli tashabbuslar ham ko'rib chiqildi.

Davlatimiz rahbari markazda Farg'ona viloyatining sanoat va xizmat ko'rsatish salohiyatiga oid ko'rgazmalar bilan tanishdi. Hunarmandchilik, qurilish materiallari, elektrotexnika, mashinasozlik, to'qimachilik, charam-poyabzal va zargarlik sohaslarida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni namoyish etildi.

Ikkinchi yirik zalda oziq-ovqat sanoati, ekologik transport, neft-gaz tarmog'i, mebelsozlik, farmatsevtika va kimyo sanoatiga oid mahsulotlar taqdimoti tashkil etildi. Bu ko'rgazmalar hududda ishlab chiqarish tarmoqlari keng qamrovda rivojlanayotganini namoyon qildi.

Shu yerning o'zida davlatimiz rahbari xorijiy tadbirkorlar bilan muloqot qildi. Investitsiya loyihalarini jadallashtirish, mavjud muammolarni bartaraf etish va o'zaro manfaatli hamkorlikni kengaytirish masalalari muhokama qilindi.

Xususan, oltinni qayta ishlash fabrikasi faoliyatini kengaytirish, zamonaviy kabel ishlab chiqarish korxonasini barpo etish bilan bog'liq tashabbuslarga alohida e'tibor qaratildi. Prezident tadbirkorlarni qiyonayotgan masalalarni tinglab, ularni hal etish bo'yicha mutasaddilarga aniq topshiriqlar berdi. Barcha loyihalarni amalga oshirishda tezkorlik, samaradorlik va ochiqlikni ta'minlash ustuvor vazifa sifatida belgilandi.

Shundan so'ng Prezident Shavkat Mirziyoyev Farg'ona shahrida Farg'ona viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish masalalari yuzasidan yig'ilish o'tkazdi.

Davlatimiz rahbari, avvalo, keyingi yillarda hudud iqtisodiyotida ro'y bergan o'zgarishlarga to'xtalib o'tdi.

So'nggi yillarda viloyatda 8 milliard 200 million dollar investitsiya hisobiga 8 mingta zamonaviy quvvat ishga tushirildi. Tadbirkorlik uchun 100 trillion so'm resurs yo'naltirildi, tijorat maydonlari 10 million kvadrat metrga ko'paydi. 13,5 ming kichik va o'rta korxonalar tashkil etilib, ularning soni qariyb 2 karra oshdi.

Natijada yalpi hududiy mahsulot 1,7 barobarga, sanoat 1,5 barobarga, xizmatlar 3 barobarga o'sdi. Asosiysi, so'nggi to'rt yilda ishsizlik 9,2 foizdan 4,6 foizga, kambag'allik darajasi esa 11,6 foizdan 5,2 foizga tushdi.

Aholining uy-joy sharoitini yaxshilash bo'yicha ham katta ishlar amalga oshirilmoqda. Marg'ilonidagi Ipakchi va Qirg'ul mahallalarida 241 ta eski hovli o'rinda 2,5 ming xonadonli ko'p qavatli uylar barpo etildi. Navro'z mahallasida qurilayotgan "Yangi O'zbekiston" massiviga bu yil yana 6,5 ming oila ko'chib kiradi. Bunday ishlar Zoyzoyov, Quva tumanlari, Qo'qon va Farg'ona shaharlarida ham davom etmoqda.

So'nggi o'n yilda viloyatda 74 ming

o'rinni maktab, 145 ming o'rinni bog'cha va 3 ming koyalik shifoxonalar ishga tushirildi. 167 ta xususiy maktab tashkil etilib, ularda 40 mingdan ortiq o'quvchilar ta'lim olmoqda. Ta'lim sifati oshgani natijasida yoshlarning oliy ta'lim muassasalariga kirish ko'rsatkichi bo'yicha Farg'ona respublikada 3-o'ringa ko'tarildi.

Qishloq xo'jaligida 15 ming gektar sanoatlashgan bog' va tokzor yaratildi, yana 6 ming gektari yangilandi. Mevasabzavot eksporti 3 karra ko'payib, 400 million dollarga yetdi. Farg'ona, So'x, Quva tumanlari, Marg'ilon va Qo'qon shahrida turizm jadal rivojlanmoqda. O'tgan yili xorijiy turistlar soni ilk bor 500 mingdan, mahalliy sayyohlar 3 milliondan oshdi, turizm eksporti esa 185 million dollarga yetdi.

– Farg'ona ahli bizdan yanada katta natija kutayпти, – dedi Prezident.

Shu bois joriy yil viloyatda iqtisodiyotni 9,1 foizga, sanoatni 9 foizga o'stirish, 4,5 milliard dollar xorijiy investitsiya jalb etish, eksportni 2 karra ko'paytirib, 2 milliard dollarga yetkazish vazifasi qo'yildi.

Yig'ilishda Farg'ona davlat idoralari, sanoat, servis va qishloq xo'jaligida zamonaviy texnologiyalar, raqamli yechimlar va sun'iy intellektni keng joriy etish bo'yicha namuna bo'lishi kerakligi ta'kidlandi.

"Besh million sun'iy intellekt yetakchisi" dasturi bo'yicha sertifikat olgan yoshlarning eng ko'pi Farg'ona viloyatiga to'g'ri keladi. Viloyat va tumanlar rahbarlariga iqtidorli yoshlarni jalb etgan holda davlat idoralardagi xizmatlar va jarayonlarni raqamlashtirish, aholi va tadbirkorlar uchun qulayliklarni oshirish topshirildi.

Mahallalarning ustunliklarini sun'iy intellekt yordamida tahlil qilib, ish o'rni, qo'shilgan qiymat va aholi daromadini ko'paytiradigan loyihalar ishlab chiqish muhimligi qayd etildi.

(Davomi 2-betda).

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Matbuot xizmati surati.

CHEXIYA BOSH VAZIRI RASMIY TASHRIF BILAN O'ZBEKISTONDA BO'LADI

Chexiya Respublikasi Bosh vaziri Andrey Babish 29-30-aprel kunlari rasmiy tashrif bilan mamlakatimizda bo'ladi.

Tashrif dasturiga muvofiq, Toshkent shahrida oliy darajadagi muzokaralar bo'lib o'tadi, ko'p qirrali O'zbekiston – Chexiya hamkorligini yanada rivojlantirish istiqbollari ko'rib chiqiladi.

O'zaro savdoni ko'paytirish, mashinasozlik, "yashil" energetika, kimyo, farmatsevtika va transport sohaslarida kooperatsiyani kengaytirish diqqat markazida bo'ladi. Madaniy-gumanitar va ta'lim sohaslaridagi hamkorlik masalalari muhokama qilinadi.

Xalqaro kun tartibidagi masalalar, shu jumladan, ko'p tomonlama maydonlarda o'zaro qo'llab-quvvatlash yuzasidan ham fikr almashiladi.

Uchrashuv yakunida ikki tomonlama hujjatlar imzolaniishi ko'zda tutilgan.

Tashrif doirasida Bosh vazir Andrey Babish O'zbekiston – Chexiya biznes forumida ham ishtirok etadi.

O'ZA.

Muhokama

SIYOSIY MULOQOTLARNING YANGI BOSQICHI

Oliy Majlis Senati Raisining birinchi o'rinbosari Sodiq Safoyev va Buyuk Britaniya parlamentidagi Markaziy Osiyo mamlakatlari bo'yicha umumpartiyaviy parlament guruhi raisi Pamela Koks boshchiligidagi delegatsiya o'rtasida onlayn muloqot bo'lib o'tdi.

Uchrashuvda O'zbekiston va Buyuk Britaniya o'rtasidagi ikki tomonlama munosabatlarning bugungi holati va istiqbollari atroflicha muhokama qilindi. Xususan, parlamentlararo muloqotni izchil rivojlantirish, savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy hamkorlikni kengaytirish, shuningdek, ta'lim, ilm-fan hamda madaniy-gumanitar sohaslardagi aloqalarni yanada mustahkamlash masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Tomonlar ta'kidlaganidek, so'nggi yillarda O'zbekiston va Buyuk Britaniya o'rtasidagi siyosiy muloqot barqaror va izchil rivojlanib, o'zaro hamkorlik sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarilmoqda. 2024-yil aprel oyida imzolangan Keng qamrovli sheriklik to'g'risidagi deklaratsiya,

shuningdek, tashqi siyosat idoralari va hukumatlar darajasidagi faol aloqalar ikki tomonlama munosabatlarga tizimli hamda uzoq muddatli xarakter bag'ishlamogda.

Suhbat chog'ida iqtisodiy hamkorlikni chuqurlashtirish istiqbollari ham muhokama qilindi. Jumladan, "yashil" iqtisodiyot, muhim mineralar, raqamli texnologiyalar, moliyaviy xizmatlar va qishloq xo'jaligi kabi ustuvor yo'nalishlarda amaliy hamkorlikni kengaytirish masalalari ko'rib chiqildi.

Uchrashuv yakunida tomonlar parlamentlararo muloqotni faollashtirish ikki mamlakat o'rtasidagi strategik sheriklikni yanada mustahkamlash va uni yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qilishini ta'kidlashdi.

"Xalq so'zi".

Oliy Majlis Qonunchilik palatasida

INSON HUQUQ VA MANFAATLARI QONUN LOYIHALARIDA AKS ETMOQDA

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining navbatdagi majlisi bo'lib o'tdi. Unda ekstremizmning oldini olish va unga qarshi kurashish borasidagi ishlar samaradorligini yanada oshirish, tadbirkorlik subyektlari uchun tartibga solish yukini kamaytirish, harbiy xizmatchilar va ular oila a'zolarining davlat pensiya ta'minotini yaxshilash, kibernetiklikni ta'minlash va raqamli muhitdagi huquqbuzarliklarga qarshi kurashish, veterinariya nazoratini takomillashtirishga doir qator qonun loyihalarini hamda parlament nazoratiga oid masalalar muhokama qilindi. Ushbu masalalar siyosiy partiyalar fraksiyalarida, mas'ul qo'mitalar, ishchi guruh yig'ilishlarida ekspertlar, tegishli vazirlik hamda idoralar mutaxassislari ishtirokida atroflicha ko'rib chiqilgani aytiladi.

Aholi ekstremizm tahdidlaridan himoyalanaadi

Dastlab deputatlar "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga ekstremizmga qarshi kurashish samaradorligini oshirishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun loyihasi ikkinchi o'qishda ko'rib chiqildi.

Ta'kidlanganidek, bugungi kunda ekstremistik va terrorchilik tashkilotlari axborot texnologiyalari hamda internet tarmoqlaridan foydalanib, yoshlarni zo'raonlikka jalb etishga urinayotgani kuzatilmogda. Shu bois amaldagi qonunchilikni zamon talablari asosida takomillashtirish juda muhim. Profilaktika chora-tadbirlarini kuchaytirish, mas'ul idoralar o'rtasidagi hamkorlikni yanada mustahkamlash kun tartibidagi dolzarb vazifadir.

Mazkur qonun loyihasi mamlakatimizda tinchlik va osoyishtalikni mustahkamlash, tajovuzkor urinishlarning oldini olish, yoshlarni turli zararli ta'sirlardan himoya qilishga qaratilgani bilan ahamiyatli.



Hujjat bilan Jinoyat kodeksi hamda Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksga jamoat xavfsizligi va tartibga tahdid soluvchi materiallarni tayyorlash, saqlash, tarqatish yoki namoyish etish bilan bog'liq huquqbuzarliklar uchun javobgarlik choralarini takomillashtirish nazarda tutilmoqda. Shuningdek, "Ekstremizmga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonunga ekstremizmning oldini olish, bu haqda xabar bergan shaxslarni rag'batlantirish va himoya qilish, ekstremistik tashkilotlarni belgilash tartiblarini huquqiy jihatdan mustahkamlashga qaratilgan normalar kiritilmoqda.

3

Surur

Farg'ona tongi

Tong otguncha ne balo zamona bo'ldi, Kuygan yurak-bag'irlar so'zona bo'ldi.

Joy tegmay mozordan Muqimiy sarson, Furqat tiriklikda giriyona bo'ldi.

Sho'riga sho'rva to'kdi Sho'rosi keyin, Hamza, Usmonlar joni ordona bo'ldi.

O'zbekim, deb kuyib o'tdi shoiri, Erkin ustozga erki begona bo'ldi.

Nihoyat, ufq yorishdi, tin oldi el, So'z va ish bir bo'ldi, mardona bo'ldi.

Inson qadri, adolat bo'ldi ustun, Xalq qoshida davlati parvona bo'ldi.

Tumandek tarqadi qo'rquv, gumon, g'am, E'tiqod qaytdi, yurt pirqona bo'ldi.

Maorif yelkasidan ag'nab xirmon, Maktab quchoq'i to'lib, nurxona bo'ldi.

Bu ne mo'jiza deysiz, atrofga boqib, Ilm g'arbona, tarbiya sharqona bo'ldi.

Bunyodkorlik o'stirdi millat ruhini, Xalq va davlat fitrati yagona bo'ldi.

Yangi Marg'ilonga qaytdi Otabek, Kumush dostonida afsona bo'ldi.

Ko'ring, vodiylarni yavov kezganda Ko'ngilda iftixor shohona bo'ldi.

Munavvar tong otdi O'zbekistonda, Farg'ona ham endi Farg'ona bo'ldi.

Iqbol MIRZO,
O'zbekiston xalq shoiri,
Oliy Majlis Qonunchilik
palatasi deputati.

FARG'ONA IQTISODIY O'SISH, INVESTITSIYA VA INNOVATSIYALAR MARKAZIGA AYLANMOQDA

(Davomi. Boshlanishi 1-betda).

Masalan, Yozyovon tumani imkoniyatlari sun'iy intellekt yordamida o'rganilgan tuman iqtisodiyotida asosiy e'tiborni logistikaga qaratish zarurligi aniqlangan. "A-373" magistral yo'lining Yozyovondan o'tgan 35 kilometr qismi orqali kuniga 30 ming transport vositasi harakatlanadi. Shu bois tumanda logistika markazlari, yirik omborlar, yo'lbo'yi servis obyektlarini ko'paytirish orqali iqtisodiy aylanmani yana 1 trillon so'mga oshirish vazifasi qo'yildi.

So'ngi yillarda Farg'onada IT xizmatlari 4 karra o'sib, eksport 23 million dollardan oshdi. Yangi o'quv yilidan Quva tajribasi asosida yana 16 ta tumanda texnikumlar negizida dasturlash, robototexnika, grafik dizayn va xorijiy tillar bo'yicha kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yiladi. Farg'ona shahrida IT-park universiteti, Marg'ilonda INHA universitetining filialini ochib, sun'iy intellekt, kibernetika va dasturiy muhandislik yo'nalishlarida yiliga 1 ming nafar talabani o'qitish belgilandi.

Elektron tijoratni rivojlantirish masalasiga ham alohida e'tibor qaratildi. Bu sohada Farg'ona ulushi hali past ekani qayd etilib, viloyatda kamida 100 ming kvadrat metril omborxonaga tashkil qilish, shundan 30 ming kvadrat metrini joriy yilda ishga tushirish zarurligi ko'rsatib o'tildi. Sanoat va hunarmandchilikka ixtisoslashtirilgan 126 ta mahalladagi tadbirkorlarni elektron tijorat platformalaridan foydalanishga o'rgatish vazifasi qo'yildi.

Qishloq xo'jaligida mavjud zaxiralarni ishga solish ham muhkama qilindi. Viloyatda 370 ming gektar sug'oriladigan yer, shundan 55 ming gektar bog' va tokzor bor. Afuski, 5,5 ming gektar bog' va tokzor eskirgan, 6 ming gektar dasht hamda adir yerlaridan samarali foydalanilmayapti. Bu qo'shimcha 300 ming tonna meva-sabzavat va iqtisodiyotga 2 trillon so'mlik qo'shilgan qiymat yaratish imkonini ekanini ta'kidlandi.

"Quva Agrostar" agromajmuasi tajribasi alohida qayd etildi. Bu yerda kooperatsiya asosida tomorqa va dehqon xo'jaliklariga kichik sexlar qurish, dehqonlarni o'qitish, "In

vitro" laboratoriyada yetishtirilgan ko'chatlar bilan ta'minlash va tayyor mahsulot eksportiga ko'maklashish yo'lga qo'yilmoqda. Mana shunday yondashuvlarni barcha tumanlarda joriy qilish, 5,5 ming gektar eskirgan bog'larni to'liq yangilash topshirildi.

Viloyatda 50 ming gektar kam hosilli paxta va g'alla yerlari hamda samarasi past bog'lar o'rnida super intensiv bog'lar yaratish bo'yicha katta dastur ishlab chiqildi. Bu yil 611 ming tonna meva, 252 ming tonna uzum, 1,8 million tonna sabzavat, 119 ming tonna sholi yetishtirib, meva-sabzavat eksportini 25 foizga oshirish va 500 million dollarga yetkazish muhimligi qayd etildi.

Davlatimiz rahbari investitsiya masalalariga ham to'xtaldi. Viloyatda sanoat zonalarini uchun ajratilgan 1 ming 770 gektar yerdan samarali foydalanish, har bir gektarda yiliga kamida 50 milliard so'mlik mahsulot ishlab chiqarish asosiy mezon bo'lishi belgilandi. Sanoat zonalarida 5 milliard dollarlik loyihalarni boshlash topshirildi.

Beshariqdagi Andarxon mahallasida erkin savdo zonasi tashkil etish, Qo'qondagi mexanika zavodi hududida 70 million dollarlik yirik savdo kompleksini barpo etish takliflari qo'llab-quvvatlandi.

Turizm sohasida ham katta imkoniyatlar borligi qayd etildi.

– Tarixiy obidalar va betakror tabiatni o'zida jamlagan Farg'onada xorijiy turistlar oqimini yana 2-3 karra oshirsa bo'ladi, – dedi Prezident.

Buning uchun Qo'qon va Marg'ilonni ziyorat turizmiga, So'x, Quva, Beshariq va Farg'ona tumanlarini tibbiy hamda ekoturizmga ixtisoslashtirish zarurligi ta'kidlandi.

Quvadagi "Karkidon" suv ombori atrofida dam oluvchilar xavfsizligini ta'minlash bo'yicha favqulodda vaziyatlar markazi tashkil etilgan qayd etilib, mamlakatdagi boshqa suv omborlarni ham bosqichma-bosqich aholi va sayyohlar uchun qulay maskanlarga aylantirish vazifasi qo'yildi.

Marg'ilonda "Burhoniddin Marg'inoniy" ilmiy-ma'rifiy va turizm majmuasining ochilishi milliy qadriyatlar va tariximizni dunyoga namoyon etadigan muhim

qadam sifatida baholandi. Farg'ona tumanida "Shohimardon – Yordon" xalqaro kurort zonasi, "Vodil" malina-agroturizm klasteri, "Avval" ko'ngilochar turizm majmuasi va "Chimyon" sanatoriya-kurort zonasi kabi loyihalar amalga oshirilmoqda. Kelasi yil yakunigacha 300 million dollarlik 50 ta turizm loyihasini ishga tushirish zarurligi belgilandi.

Qo'qonda 64 ta madaniy meros obyektini qamrab olgan 3 ta piyoda turizm marshruti ishlab chiqilgan. Shahardagi madaniy meros obyektlarida joylashgan davlat idoralarni boshqa binolarga ko'chirish, tarixiy obyektlarni turizm va madaniyat maskanlariga aylantirish bo'yicha topshiriqlar berildi.

So'x tumanida ekoturizm, agro va tibbiy turizmni rivojlantirish uchun katta salohiyat mavjudligi ta'kidlandi. So'x daryosining Sarikanda, Istiqlol va Rovon mahallalaridan o'tgan qismida 130 gektar maydonda yirik turizm kompleksi barpo etish, xorijiy mutaxassislarni jalb qilgan holda tumanni rivojlantirish bo'yicha master-reja ishlab chiqish topshirildi. Umumiy, turizmga yangicha qiyofa olib kirish bo'yicha uch yillik dastur qabul qilinishi e'lon qilindi.

Yig'ilishda Farg'onaning boy madaniy merosini o'rganish va targ'ib qilish masalalariga ham ko'rib chiqildi.

Qo'qon adabiy muhiti antropologiyasi va elektron platformasini yaratish, Adabiyot va ijod maktabini tashkil etish taklif qilindi. Yoshlar o'rtasida kitobxonlikni ommalashtirish maqsadida viloyatdagi 100 ta mahallada namunaviy mahalla kutubxonalarini tashkil etiladi, buk-kafe ochgan tadbirkorlarga soliq va ijara to'lovlari bo'yicha imtiyozlar beriladi. "Burhoniddin Marg'inoniy" ilmiy-ma'rifiy va turizm majmuasida har ikki yilda Xalqaro kitobxonlik festivalini o'tkazish, unga dunyoning mashhur yozuvchisi va shoirlarini taklif qilish tashabbusi ilgari surildi.

Farg'ona madaniyatining ajralmas qismi bo'lgan askiya san'atini asrab-avaylash va rivojlantirish masalasiga ham alohida e'tibor qaratildi. Marg'ilonda Yusufjon qiziq Shakarjonov nomidagi Respublika askiya va qiziqchilik san'ati markazi tashkil etilgan qayd etilib, yosh iste'dodlarni qo'llab-quvvatlash, tuman

madaniyat markazlari hamda musiqa-san'at maktablarida askiya va qiziqchilik mahorati yo'nalishlarini ochish topshirildi.

Yig'ilish davomida viloyat va tumanlar rahbarlarining hisobotlari, tadbirkorlar va jamoatchilik vakillarining fikrlari tinglandi.

So'ng Prezident Shavkat Mirziyoyev Farg'ona shahridagi IT-park majmuasida yaratilgan shart-sharoitlar bilan tanishdi.

Mazkur majmua davlatimiz rahbarining 2024-yil avgust oyidagi tashrifi davomida berilgan topshiriqlari asosida barpo etilgan. 150 milliard so'm byudjet mablag'lari hisobiga qurilgan obyekt bir vaqtning o'zida 200 nafargacha foydalanuvchini qamrab oladi. Yiliga 3 mingdan ortiq yoshlarni o'qitish, ularni amaliy loyihalarga jalb etish va AT xizmatlari ko'rsatish imkoniyati yaratilgan.

Markazda frilanserlar va dasturchilar uchun zamonaviy kovorking muhiti, rezident kompaniyalar uchun to'liq jihozlangan ofislar tashkil etilgan. Bu yerda ta'lim, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonlari o'zaro bog'langan. Yaratilgan infratuzilma yo'shlarining o'zini o'zi band qilish imkoniyatlarini kengaytirib, barqaror daromad topishga xizmat qiladi.

Qayd etilganidek, so'nggi yillarda Farg'ona viloyatida AT xizmatlari hajmi 4 barobarga o'sib, eksport 23 million dollardan oshgan. Hozirgi kunda viloyatda "IT-park" rezidentlari soni 139 taga yetgan. 2025-yilda 22,7 million dollarlik axborot texnologiyalari xizmatlari eksport qilingan.

Yangi park doirasida rezidentlar sonini 200 nafarga yetkazish, 700 ta ish o'rni yaratish, xizmatlar hajmini oshirish hamda 30 million dollarlik eksportga erishish maqsad qilingan.

Kelgusida mazkur majmuada sun'iy intellekt texnologiyalari xabini tashkil etish, bosqaruv tizimlarini raqamlashtirishga qaratilgan loyihalarni amalga oshirish ko'zda tutilgan. Shuningdek, sun'iy intellekt, dasturlash, grafik dizayn, kompyuter savodxonligi va ingliz tili bo'yicha zamonaviy o'quv kurslari yo'lga qo'yiladi. Startaplar uchun venchur moliyalashtirish, grantlar va akseleratsiya dasturlari joriy etiladi.

Prezidentimiz park rezidentlari va axborot texnologiyalari sohasida faoliyat yuritayotgan yoshlar bilan muloqot qildi.

Ular tomonidan ilgari surilgan tashabbus va g'oyalari qo'llab-quvvatlandi.

Davlatimiz rahbari Farg'ona viloyati futbol assotsiatsiyasiga qarashli futbol markazi va "Neftchi" bolalar futbol akademiyasida yaratilgan sharoitlar bilan tanishdi.

Farg'ona viloyati o'zining boy futbol an'analari va iste'dodli charm to'p ustalari bilan mashhur.

Jumladan, 1962-yilda tashkil etilgan "Neftchi" futbol klubi O'zbekiston Superligasining 6 karra chempioni, mamlakat kubogining 2 karra va superkubogining 1 karra sohibi hisoblanadi. Shuningdek, klub 1994-yilda MDH kubogi finalchisi bo'lgan, 1994-1995-yillarda esa Osiyo chempionlar ligasida bronza medallarini qo'lga kiritgan.

Bugun ham hududda iqtidorli yosh futbolchilarni saralab olish va tayyorlash, malakali murabbiylar zaxirasini shakllantirish bo'yicha tizimli ishlar olib borilmoqda.

Xususan, professional futbol klublari akademiyalarini rivojlantirishga qaratilgan choralar natijasida 2025-yilda "Neftchi" bolalar futbol akademiyasi tashkil etildi.

4,5 gektardan ortiq maydonni egallagan akademiya 150 nafardan ziyod o'quvchi-yoshlar uchun mo'ljallangan. Bu yerda 6 ta katta va kichik futbol maydoni, zamonaviy tibbiy va reabilitatsiya uskunalarini jihozlangan fizioterapiya bo'limi faoliyat yuritadi.

Akademiyada 1,1 million dollarlik sun'iy qoplamali, havo gumbaz bilan yopilgan yopiq futbol manaji barpo etilgan.

Viloyatda futbol muhitini jahon standartlari darajasiga olib chiqish, iqtidorli yoshlarni saralash maqsadida UEFA instruktorlari va boshqa xalqaro mutaxassislar jalb qilingan.

Prezidentimiz akademiyada futbolchilar uchun yaratilgan sharoitlarni ko'zdan kechirdi. Yoshlar bilan muloqot qilib, ularning mashg'ulotlarini kuzatdi.

Farg'ona viloyatiga tashrif doirasida davlatimiz rahbari Farg'ona xalqaro aeroportini rivojlantirish konsepsiyasi taqdimoti bilan tanishdi.

Bugungi kunda Farg'ona aeroportidagi terminal o'ttiz yildan ortiq vaqt davomida faoliyat yuritib kelmoqda. Uning o'tkazuvchanlik quvvati, yo'lovchilarga

qulaylik darajasi, shuningdek, aviatsiya va noaviatsiya xizmatlarini rivojlantirish imkoniyatlari zamonaviy talablarga to'liq javob bermay qolgan.

Shu bois parvozlar geografiasini kengaytirish, hududning o'sib borayotgan iqtisodiy faolligi va sayyohlar oqimiga mos ravishda xizmat ko'rsatishni ta'minlash maqsadida aeroport infratuzilmasini kompleks rivojlantirish rejalashtirilgan.

Taqdimotda uchish-qo'nish yo'lagini uzaytirish va kengaytirish, aerodrom infratuzilmasini modernizatsiya qilish, yangi yo'lovchi hamda yuk terminallarini barpo etish masalalari ko'rib chiqildi.

Maydoni 20 ming kvadrat metr bo'lishi kutilayotgan yangi yo'lovchi terminali hozirgi imkoniyatlarga nisbatan ikki barobar ko'p – 1,2 ming nafargacha yo'lovchiga xizmat ko'rsatish quvvatiga ega bo'ladi. Shuningdek, qo'shimcha samolyot turargohlari barpo etilib, havo kemalarini saqlash imkoniyati 10 tagacha yetkaziladi.

Yangi terminalda keng kutish zalari, zamonaviy servis nuqtalari, qulay ro'yxatdan o'tish va nazorat tizimlari, shuningdek, yuqori martabali mehmonlar uchun alohida xizmat ko'rsatish sharoitlari yaratilishi ko'zda tutilgan.

Davlatimiz rahbari aeroport har qanday hududning "darvozasi" ekanini ta'kidlab, bu yerda zamonaviy servisni yo'lga qo'yish, transport va xizmat ko'rsatish bilan bog'liq yondosh tarmoqlarni rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar berdi.

Loyihalash, qurilish va yangi terminalni keyinchalik boshqarishni xalqaro standartlar asosida, tegishli tajribaga ega xorijiy operatorlarni jalb qilgan holda amalga oshirish muhimligi ta'kidlandi.

Qayd etilganidek, ushbu loyihaning amalga oshirilishi Farg'ona vodiysida transport bog'liqligini kuchaytirish, sayyohlar oqimini oshirish va hududning logistik markaz sifatidagi mavqeiini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Shu bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Farg'ona viloyatiga tashrifi yakunlandi.

Ziyodulla JONIBEKOV,
Abdulaziz RUSTAMOV,
Behrux XUDOYBERDIYEV,
O'ZA maxsus muxbirlari.

AHOLI FAROVONLIGI YO'LIDAGI ISLOHOTLAR

Prezidentimizning Farg'ona viloyatiga tashrifi chog'ida yana bir bor amin bo'ldikki, bugun vodiya amalga oshirilayotgan keng ko'lami islohotlar, bunyodkorlik ishlari va zamonaviy loyihalar hudud taraqqiyotining yangi bosqichga ko'tarilgan dalolat bermoqda. Shuni ta'kidlash lozimki, ushbu o'zgarishlar markazida, avvalo, inson manfaatlarini, aholi farovonligini turibdi.

Munhosabat

Yaqinda vodiyning Qo'qon, Namangan, Andijon va Marg'ilon shaharlarini bog'lovchi yangi elektropoyezd qatnovi yo'lga qo'yilgan buning yaqqol namunasidir. Mazkur loyiha aholiga qulay, xavfsiz va arzon transport xizmatini taqdim etish bilan birga, hududlar o'rtasidagi iqtisodiy va ijtimoiy aloqalarni yanada mustahkamlashga xizmat qiladi. Ayniqsa, chipta narxining hamyonbopligi va zamonaviy qulayliklarning joriy etilgan o'zgarishlari uchun katta imkoniyat yaratilmoqda.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning ushbu yo'nalishdagi ilk qatnovda bevosita ishtirok etgani esa xalq bilan yaqinlik, ochiqlik va islohotlarning amaliy natijalarini joriyda ko'rishga bo'lgan yuksak e'tibor ifodasidir.

Shu bilan birga, sanoat sohasida amalga oshirilayotgan ishlar ham tahsinga sazovor. Quvasoy shahridagi "Crown Ceramic" qo'shma korxonasi misolida mahalliy xomashyoni chuqur qayta ishlash, yuqori qo'shilgan qiymat yaratish va eksportbop mahsulot ishlab chiqarish yo'lidagi sa'y-harakatlarni alohida qayd etish joiz. Zamonaviy texnologiyalar, ekologik talablarga mos ishlab chiqarish va energotejamkor yechimlar bugungi sanoat taraqqiyotining asosiy mezonlariga aylangan.

Butun mamlakatimiz miqyosida bo'lgani kabi turizm sohasida amalga oshirilayotgan yirik loyihalar Farg'onaning ham salohiyatini yanada ochib bermoqda. Jumladan, "Karkidon" suv ombori hududida barpo etilayotgan zamonaviy turizm majmuasi bu yerni nafaqat



mamlakatimiz, balki butun mintaqa miqyosidagi jozibador maskanga aylantirishi aniq. Bu esa ish o'rinlari yaratish, xizmatlar sohasini rivojlantirish va aholi daromadini oshirishda muhim omil bo'ladi.

Har bir mamlakat, millat taraqqiyoti asosida ma'naviyat va ma'rifati yotadi. Shu nuqtayi nazaridan Farg'onadagi ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishdagi ishlar ham alohida ahamiyat kasb etadi. Marg'ilon shahridagi "Burhoniddin Marg'inoniy" ilmiy-ma'rifiy va turizm majmuasi xalqimizning boy tarixiy merosini o'rganish hamda targ'ib qilish, yosh avlodni ilmfan va ma'rifatga yo'naltirishda beqiyos ahamiyat kasb etadi. Bu kabi majmualar milliy o'zlikni anglash, ma'naviy qadriyatlarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Yoshlar masalasiga qaratilayotgan e'tibor ham diqqatga sazovor. Zamonaviy texnikumlar, startap markazlari va dual ta'lim tizimining joriy etilishi yoshlarning amaliy bilim va ko'nikmalarini oshirish, ularni mehnat bozori talablariga mos mutaxassis qilib tayyorlash imkonini bermoqda. Bu esa mamlakatimiz kelajagi uchun mustahkam poydevor demakdir.

Shuningdek, sport sohasida, xususan, futbol infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar ham yosh avlodni sog'lom turmush tarziga jalb etishda muhim o'rin tutadi. "Neftchi" bolalar futbol akademiyasi misolida yosh iqtidorlarni qo'llab-quvvatlash va ularni xalqaro maydonlarga olib chiqish uchun zarur sharoitlar yaratilmoqda.

Bugun Farg'onada amalga oshirilayotgan har bir loyiha, har bir islohot inson manfaatlarini ta'minlash, iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash va mamlakatimizning xalqaro nufuzini oshirishga qaratilgan.

Ishonchimiz komilki, bunday keng ko'lami va tizimli ishlar natijasida Farg'ona vodiysi nafaqat yurtimizning, balki butun mintaqa taraqqiyotining yetakchi markazlaridan biriga aylanadi.

Gulnora MARUFOVA,
Oliy Majlis Senati a'zosi.

O'ZGARISH VA YANGILANISHLAR JARAYONIGA DAXLDORLIK HISSI

Prezidentimiz 27-28-aprel kunlari Farg'ona viloyatida bo'lib, amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar jarayonlari, mahallalar hayoti bilan tanishdi. Davlatimiz rahbari raisligida viloyatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish masalalari yuzasidan o'tkazilgan yig'ilishda hududni yanada taraqqiy ettirish bo'yicha ustuvor vazifalar belgilab berildi.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlarining fikr-mulohazalari shu haqda.

Aks sado

Ijtimoiy-iqtisodiy masalalar samarali hal etiladi

Zokirjon ZOHIODOV,

Qonunchilik palatasi deputati:

– Davlatimiz rahbarining Farg'onaga tashrifi viloyat taraqqiyotida yana bir muhim bosqich sifatida baholalanmoqda. Hududning sanoat salohiyatidan to'liq foydalanish, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish va yuqori qo'shimcha qiymatli mahsulotlarni ulushini ko'paytirish zarurligi faollik bilan o'tkazilgan yig'ilishda alohida ta'kidlandi.

Keyingi yillarda amalga oshirilgan iqtisodiy va ijtimoiy o'zgarishlar viloyatni barqaror rivojlanish yo'lga olib chiqdi. Xususan, yangi sanoat korxonalarini tashkil etilib, mavjud ishlab chiqarish quvvatlari modernizatsiya qilindi.

Ijtimoiy sohada ham yangi maktablar, bog'chalar va tibbiyot muassasalari qurilib, aholiga xizmat ko'rsatish sifati oshirildi. Yoshlar bandligini ta'minlash, ularni kasb-hunariga o'qitish bo'yicha dasturlar amalga oshirildi. Bu esa aholi daromadlarining o'sishiga va turmush darajasining yaxshilanishiga xizmat qildi.

Albatta, yutuqlar bilan birga hali yechimini kutayotgan ayrim masalalar ham bor. Davlatimiz rahbari ushbu muammolarni bosqichma-bosqich va izchillik bilan hal etishga qaratilgan muhim vazifalarni belgilab berdi. Bu viloyatdagi har bir tuman va shahar salohiyatini to'liq ochib berish, iqtisodiy o'sishni ta'minlash va aholi farovonligini oshirishga xizmat qiladi.

Yangi ish joylari ochilishi, barqaror daromad manbalari yaratilishi, xizmat ko'rsatish kengayib, aholining ijtimoiy-

iqtisodiy faolligi ko'tarilishi masalalari parlamentning ham doimiy e'tiborida bo'lib, bu bo'yicha qator muhim qonunlar qabul qilinmoqda. Biz, deputatlar belgilab berilgan vazifalarni to'la qo'llab-quvvatlagan holda ularning ijrosi ustidan doimiy ravishda deputatlik nazoratini o'rnatib borishimiz lozim.

Vodiy aholisini birlashtiruvchi "ishonch ko'prigi"

Nodirbek TILAVOLDIYEV,
Qonunchilik palatasi deputati:

– Davlatimiz rahbarining viloyatga tashrifi davomida Farg'ona vodiysida Qo'qon, Namangan, Andijon va Marg'ilon shaharlarini bog'lovchi yangi elektropoyezd qatnovi yo'lga qo'yildi.

Vodiy shaharlarini birlashtiruvchi 324 kilometrlik yagona temir yo'l halqasining to'liq ishga tushishi mintaqadagi iqtisodiy integratsiyani yangi bosqichga olib chiqadi. Ilgari dizel lokomotivlariga asoslangan eski plaskart vagonlarda qatnovlar vaqt va texnik imkoniyatlar jihatidan cheklangan bo'lsa, endilikda zamonaviy, xavfsiz, tezkor va ekologik toza elektropoyezdlar yo'lga qo'yildi.

Ushbu loyiha tadbirkorlar uchun tovarlarni tashish va xizmat ko'rsatishda logistik xarajatlarni sezilarli darajada qisqartiradi. Fuqarolar endi bir shaharda yashab, boshqasida ishlashi yoki o'qishi uchun ko'proq imkoniyatga ega bo'ladi. Bu esa hududlar o'rtasidagi mehnat bozorini ham muvozanatlashtiradi.

Deputat sifatida mazkur loyihani "ijtimoiy tenglik"ning bir ko'rinishi, deb bilaman. Chunki har bir fuqaro, u qayerda yashamasin, zamonaviy transport xizmatlaridan foydalanish huquqiga ega bo'lishi kerak.

Qo'qondan Marg'ilonga kelgan ilk elektropoyezd – faqat temir yo'l liniyasining ochilishi emas, bu vodiya aholisini birlashtiruvchi "ishonch ko'prigi". Bu loyiha Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan "Inson qadri uchun" tamoyilining transport sohasidagi yorqin ifodasidir, desak, ayni haqiqat.

Yangi ma'naviy yuksalish

Oydin ABDULLAYEVA,
Qonunchilik palatasi deputati:

– Marg'ilon shahrida "Burhoniddin Marg'inoniy" ilmiy-ma'rifiy va turizm majmuasining ochilishi Farg'ona rivojida yangi davrni boshlab berishi, shubhasiz.

Ushbu majmua, avvalo, Burhoniddin Marg'inoniyning boy ilmiy merosini o'rganish va targ'ib etish, hududning qadimiy hunarmandchilik an'analarini asrab-avaylash, ziyorat va madaniy turizmni rivojlantirishga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

Majmua nafaqat ziyorat va turizm maskani, balki ilm-fan, madaniyat va san'atni birlashtiruvchi noyob makon sifatida ham alohida e'tiborga molik. Bu yerda joylashgan ta'lim va madaniy muassasalar esa yosh avlodni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashga zamin yaratadi. Bu, o'z navbatida, Uvaysiy, Nodira, Furqat kabi ma'naviyat yulduzlari yetishib chiqqan Farg'ona zaminining an'analarini davom ettiradi.

Mazkur majmua bugungi islohotlar samarasi, ertangi taraqqiyot poydevori va eng muhimi, millat ma'naviyatining yangi bosqichga ko'tarilayotganining yaqqol dalilidir. Bu maskan Yangi O'zbekiston mo'jizalari qatoridan munosib o'rin egallab, viloyatning muhim tashrif nuqtalaridan biriga aylinishiga ishonamiz.

Davlatimiz rahbarining Farg'onaga tashrifi, shubhasiz, viloyatni yanada rivojlantirish, inson qadriini ulug'lash, xalqni rozi qilish, hududning beqiyos imkoniyatlarini yuzaga chiqarish, farovonlikni yuksaltirish, turmush sharoitini yanada yaxshilashga yo'l ochadi.

"Xalq so'zi".

BARQAROR TARAQQIYOT OMILI

Mamlakatimizda investitsiya muhitini yaxshilash, sanoatni modernizatsiya qilish va tashqi savdo salohiyatini kengaytirishga qaratilgan islohotlar izchil va tizimli ravishda amalga oshirilmoqda. 24-aprel kuni o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida ham Prezidentimiz tomonidan investitsiya jarayonlarida loyihani to'g'ri tanlash va unga mos, salohiyatli investorni jalb qilish ustuvor vazifa ekanini qat'iy ta'kidlandi. 2026-yilda 53 mlrd. dollar xorijiy investitsiya jalb etish maqsad qilindi. Bu ko'rsatkichni ta'minlashda investitsiyalarning miqdoriga emas, balki ularning sifatiga e'tibor qaratishga urg'u berildi.

Tahlil

Statistik raqamlarga ko'ra, so'nggi yillarda investitsiya faolligi barqaror o'sish dinamikasini namoyon etmoqda. Xususan, 2025-yilda 43,1 mlrd. dollar xorijiy investitsiya o'zlashtirilib, belgilangan reja 103 foizga bajarilgan va bu ko'rsatkich 2024-yildagiga nisbatan 1,2 barobar oshgan. Bugungi kunda jami 3 152 ta loyihadan iborat, umumiy qiymati 319,3 mlrd. dollarga teng investitsiya portfeli shakllantirilgan. 2026-yilda esa 2 289 ta loyihani amalga oshirish rejalashtirilgan iqtisodiy o'sishning mustahkam asoslarini yaratilayotganini ko'rsatadi. Mazkur jarayon iqtisodiyotni tarmoqlari kesimida ham yuqori o'sish sur'atlarini namoyon etmoqda. Xususan, bunda qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi, qishloq xo'jaligi, qurilish materiallari sanoati, tog'-kon va metallurgiya hamda kimyo sanoati yetakchilik qilyapti. Ayniqsa, raqamli texnologiyalar sohasida 176 foizlik o'sish qayd etilishi iqtisodiyotning innovatsion transformatsiyasi jadallashganini anglatadi.

Hududlar kesimida Toshkent shahri, Namangan, Toshkent viloyati, Andijon va Samarqand yetakchi sifatida qayd etilgan bo'lsa, Surxondaryo, Sirdaryo va Jizzax viloyatlarida yuqori o'sish sur'atlari kuzatilayotir. Shu bilan birga, 100 mln. dollardan ortiq investitsiya jalb qilgan tumanlar sonining uch barobarga oshgani hududiy iqtisodiy islohotlar samaradorligini yaqqol namoyon etmoqda.

Biroq ushbu yo'nalishda ayrim tizimli muammolar ham bor. Xususan, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi 526 ta korxonalar hali eksport faoliyatini yo'lga qo'ymagan, 767 ta korxonaga esa faqat import operatsiyalari bilan cheklanib, ichki bozorda savdo qilish bilan shug'ullanmoqda. Bu holat investitsiya samaradorligini oshirish, ishlab chiqarishni mahalliyashtirish va eksportga yo'naltirish bo'yicha manzilli chora-tadbirlarni kuchaytirish zarurligini ko'rsatadi.

Shu munosabat bilan importga yo'nalgan korxonalarni mahalliy ishlab chiqarishga o'tkazish, mahalliy tadbirkorlar bilan sanoat kooperatsiyasini kengaytirish, ehtiyoj va butlovchi qismlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish, shuningdek, ichki bozorda faoliyat yuritayotgan korxonalarni tashqi bozorlarga olib chiqish bo'yicha aniq vazifalar belgilandi. Bu yo'nalishda alohida kompleks dastur ishlab

chiqilishi investitsiya siyosatining amaliy samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Yangi yondashuvga ko'ra, investitsiya jarayoni "investitsiya g'oyasi - loyiha - ishlab chiqarish - eksport" zanjiri bo'yicha yagona raqamli boshqaruv tizimi asosida tashkil etilmoqda. Bu tizim loyihalarni tanlash, amalga oshirish hamda monitoring qilish jarayonlarini tizimlashtirib, investitsiya samaradorligini oshirish va eksport natijalarini kafolatlash imkonini beradi.

Eksport salohiyatini oshirish masalasi ham ustuvor vazifalar qatorida qolmoqda. 2026-yilda eksport hajmini 27,8 mlrd. dollarga yetkazish rejalashtirilgan. Ushbu jarayonda, eng muhimi, eksport tarkibida sifat o'zgarishlari kuzatilayotir. Xususan, qayta ishlangan mahsulotlar ulushi 56 foizga yetib, xomashyo eksporti 9 foizgacha kamaygani milliy iqtisodiyotda qo'shimcha qiymat yaratish jarayonlari chuqurlashayotganidan dalolat beradi.

Mamlakatimiz eksport geografiasini ham izchil kengaytmoqda. Asosiy tashqi bozorlar sifatida Rossiya, Xitoy, Afg'oniston, Qozog'iston va Turkiya davlatlari qayd etildi. Eksportni diversifikatsiyalash, yangi bozorlarga chiqish va milliy mahsulotlarning xalqaro raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Tashqi sarmoyani jalb etishda xalqaro moliya institutlarining o'rni beqiyos. Xususan, Islom taraqqiyot banki tomonidan 1,2 mlrd. dollar, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki 1,1 mlrd. dollar, Osiyo taraqqiyot banki 897 mln. dollar va Jahon banki tomonidan 824 mln. dollar miqdorida moliyaviy resurslar jalb etilgani investitsiya faoliyatining xalqaro darajada ishonchligini tasdiqlaydi.

Yuqorida keltirilgan tahlillar mamlakatimizda amalga oshirilayotgan investitsiya siyosati yangi sifat bosqichiga ko'tarilganini, endi asosiy e'tibor investitsiya hajmini oshirishga emas, balki uning samaradorligi, eksportga yo'naltirilganligi va iqtisodiyotga qo'shayotgan real hissasini ta'minlashga qaratilganini bildiradi. Bu esa barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash, ish o'rinlari yaratish va aholi farovonligini yuksaltirish uchun mustahkam poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Jamila BOBANAZAROVA,
Oliy Majlis Senatning
Xalqaro munosabatlar, tashqi iqtisodiy
aloqalar, xorijiy investitsiyalar va turizm
masalalari qo'mitasi a'zosi.

Qo'shma yig'ilish

Tizimli choralar samara bermoqda

Oliy Majlis Senati Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo'mitasi hamda xalq deputatlari Yangiheyot tumani Kengashining qo'shma majlisi bo'lib o'tdi.

U nda t u m a n d a huquqbuzarliklar profilaktikasi, jinoyatchilik va korrupsiyaga qarshi kurashish borasida amalga oshirilayotgan ishlar samaradorligi atroflicha muhokama qilindi. Shuningdek, bugungi kunda 206 ta maishiy va savdo obyekti hamda 263 ta xonadon texnik jihatdan qo'riqlovga olingani, bundan tashqari, ko'p qavatli uylarning kirish eshiklariga 150 ta domofon, kirish yo'laklariga 106 ta "tashvish tugmasi" o'rnatilgani alohida ta'kidlandi.

Amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida 2026-yilning birinchi choragida oila-turmush nizolari oqibatida jinoyat sodir etilishiga yo'l qo'yilmadi. Shuningdek, oldini olish mumkin bo'lgan jinoyatlar soni 8,8 foizga kamaydi.

Jinoyat turlari bo'yicha ham ijobiy natijalar qayd etildi.

Xususan, qotillik, o'g'rilik, transport vositasini olib qochish, og'ir tan jarohati yetkazish kabi jinoyatlar hamda o'lim bilan bog'liq yo'l-transport hodisalarini soni kamaygan.

Ichki ishlar organlari tashabbusi bilan aniqlanadigan jinoyatlar 34,9 foizga oshgani qayd etildi. Mahallalar kesimida tahlil qilindagina 30 ta mahallaning 7 tashabbusi bilan kamaygan, 21 tasida esa umuman jinoyat sodir etilmagan. Muhimi, mazkur natijalar hamduda jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikning oldini olish borasida tizimli ishlar amalga oshirilayotganini ko'rsatadi.

Muhokama yakunida tegishli qaror qabul qilinib, belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash yuzasidan aniq chora-tadbirlar rejasini tasdiqlandi.

Kozimjon TOJIYEV,

Xalqaro ishlar, mudofaa va xavfsizlik masalalari
qo'mitasi a'zosi:

– Mazkur qonun loyihasi harbiy xizmatchilar (xodimlar) va ularning oila a'zolari ijtimoiy himoyasini kuchaytirish, harbiy xizmat nufuzini kuchaytirish, pensiya ta'minoti sohasidagi munosabatlarni aniq tartibga solish, huquqni qo'llash amaliyotida yagona va barqaror mexanizmlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Majlisda qonun loyihasi deputatlar tomonidan qabul qilindi va Senatga yuborildi.

Kiberjinoatlarga qarshi kurashish – ustuvor vazifa

Majlisda ko'rib chiqilgan navbatdagi hujjat – axborot texnologiyalaridan foydalanib sodir etiladigan huquqbuzarliklarga qarshi kurashishni kuchaytirishga qaratilgan qonun loyihasi bo'ldi.

Keskin o'sib borayotgan kiberjinoatlarga qarshi kurashish, shuningdek, shaxs, jamiyat va davlat

INSON HUQUQ VA MANFAATLARI QONUN LOYIHALARIDA AKS ETMOQDA



“Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida”, “Axborotlashtirish to'g'risida”, “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida”, “Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida”, “Ta'lim to'g'risida”, “Aholi bandligi to'g'risida”, “Noshirik faoliyati to'g'risida”, “Aholiga psixologik yordam ko'rsatish to'g'risida”gi hamda “Madaniy boyliklarning olib chiqilishi va olib kirilishi to'g'risida”gi qonunlarga ham tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilyapti.

Anvarxon TEMIROV,
Korrupsiyaga qarshi kurashish va sud-huquq
masalalari qo'mitasi a'zosi:

– Qonun loyihasi dolzarb ahamiyatga ega bo'lib, ekstremizmga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtiradi, profilaktika ishlarini samaradorligini oshiradi. Jamiyatda tinchlik, totuvlik, bag'rikenglik, o'zaro hurmat muhitini yanada mustahkamlashga huquqiy zamin bo'ladi.

Majlisda qonun loyihasi qabul qilindi va Senatga yuborildi.

Tadbirkorning ovora bo'lishiga yo'l qo'yilmaydi

Majlisda tadbirkorlarning huquq va manfaatlarini ta'minlashga qaratilgan qonun loyihasi deputatlar tomonidan ikkinchi o'qishda muhokama qilindi.

Qonun loyihasi bilan iqtisodiy protsessual hamda Soliq kodekslariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilyapti. Jumladan, soliq to'lovchi bo'lgan tadbirkorlik subyekti o'zining soliqqa oid huquqbuzarligini tan olganda va e'tiroz bildirmaganda, tadbirkorning bankdagi hisobvaraqdagi bo'yicha operatsiyalarni to'xtatib turish soliq organlari tomonidan amalga oshirilishi belgilanmoqda.

Huquqbuzarlik bartaraf etilganda hisobvaraq faoliyatiga qo'yilgan cheklovni bekor qilish ham soliq organi tomonidan amalga oshirilishi ta'kid etilyapti. Endilikda qoidabuzilish tan olinsa, ish sudgacha bormaydi. Kiritilayotgan mazkur o'zgartirishlar qoidabuzilishlarni tez fursatda bartaraf qilish va tadbirkorga faoliyatini qisqa vaqtida qayta davom ettirish imkonini beradi.

Zuhriddin MAVLONOV,
Korrupsiyaga qarshi kurashish va sud-huquq
masalalari qo'mitasi a'zosi:

– Qonun loyihasini ikkinchi o'qishga tayyorlash jarayonida deputatlar, ekspertlar bildirgan taklif va tavsiyalar ishchi guruh hamda qo'mita a'zolari ishtirokida batafsil ko'rib chiqilib, loyiha normalari takomillashtirildi. Ushbu hujjat tadbirkorlik subyektlarining o'z faoliyatini tezda tiklash imkoniyatini cheklaydigan o'rtiqcha tartib-taomillarni bartaraf etadi, tadbirkorlik subyektlari faoliyatining barqarorligini ta'minlaydi.

Muhokamadan so'ng qonun loyihasi deputatlar tomonidan qabul qilindi va Senatga yuborildi.

Harbiy xizmatchilar pensiyasini oshirish taklif qilinmoqda

“Harbiy xizmatchilarning (xodimlarning) va ular oila a'zolarining davlat pensiya ta'minoti to'g'risida”gi qonun loyihasi ikkinchi o'qishda ko'rib chiqildi.

Loyiha bilan harbiy xizmatchilar (xodimlar) va ularning oila a'zolarini davlat pensiyalari bilan ta'minlashning huquqiy asoslarini qonun bilan belgilash, ushbu pensiyani tayinlash shartlari, turlari, miqdorlari va tartibiga oid normalarni takomillashtirish nazarda tutilmoqda.

Xususan, harbiyda 30 yildan ortiq xizmat qilganlar uchun pensiyaning bazaviy miqdorini aniqlashda ish haqining hisobga olinadigan miqdorini 75 foizdan 100 foizga oshirish, shuningdek, pensiya tayinlashda asos bo'ladigan pensiyani hisoblash bazaviy miqdorini o'n baravaridan kelib chiqib hisoblash amaliyotini o'n ikki baravaridan kelib chiqib amalga oshirish taklifi ilgari surilmog'unda.

Taqdim etilayotgan imtiyozlar Vatanimiz va xalqimiz xavfsizligini ta'minlashda uzoq yillar fidokorona xizmat qilgan, o'z hayotini yurtimiz istiqbol uchun bag'ishlab, fidoyilik ko'rsatgan harbiylarimizni qo'shimcha rag'batlantirish, yoshlarimizda bu sohaga mehr va ishtiyoqni oshirish, ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash kabi maqsadlarni nazarda tutgan.

Kozimjon TOJIYEV,

Xalqaro ishlar, mudofaa va xavfsizlik masalalari
qo'mitasi a'zosi:

– Mazkur qonun loyihasi harbiy xizmatchilar (xodimlar) va ularning oila a'zolari ijtimoiy himoyasini kuchaytirish, harbiy xizmat nufuzini kuchaytirish, pensiya ta'minoti sohasidagi munosabatlarni aniq tartibga solish, huquqni qo'llash amaliyotida yagona va barqaror mexanizmlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Majlisda qonun loyihasi deputatlar tomonidan qabul qilindi va Senatga yuborildi.

Kiberjinoatlarga qarshi kurashish – ustuvor vazifa

Majlisda ko'rib chiqilgan navbatdagi hujjat – axborot texnologiyalaridan foydalanib sodir etiladigan huquqbuzarliklarga qarshi kurashishni kuchaytirishga qaratilgan qonun loyihasi bo'ldi.

Keskin o'sib borayotgan kiberjinoatlarga qarshi kurashish, shuningdek, shaxs, jamiyat va davlat

manfaatlarining ishonchli himoya mexanizmlarini takomillashtirish zarurati ortib bormoqda.

Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, keyingi yillarda bank kartalari orqali mablag'larni talon-toroj qilish, onlayn fribgarlik bilan bog'liq holatlar ko'paymoqda. Bu esa mazkur turdagi huquqbuzarliklarga qarshi kurashishning samarali kompleks huquqiy mexanizmlarini shakllantirishni taqozo etmoqda.

Qonun loyihasida kiberjinoatlarga qarshi kurashish faoliyatida qatnashuvchi davlat organlari va tashkilotlarning vakolatlari aniq belgilab berilmoqda. Jumladan, Ichki ishlar vazirligi ushbu yo'nalishda vakolatli organ sifatida belgilanyapti.

Davlat organlari, banklar, to'lov tashkilotlari hamda internet provayderlarining mas'uliyati oshirilmog'unda. Axborot xavfsizligini ta'minlash, shubhali moliyaviy operatsiyalarni muntazam monitoring qilish va vakolatli organlarga tezkor axborot taqdim etish kabi vazifalar shular jumlasidan.

Kiberjinoatlardan jabrlangan shaxslarni reabilitatsiya qilish instituti joriy etilyapti.

Javlon ABDULLAYEV,
Innovatsion rivojlanish va axborot
texnologiyalari masalalari qo'mitasi raisi
o'rinbosari:

– Loyiha doirasida kiberjinoatlarni barvaqt aniqlash va ularning oldini olishga qaratilgan yangi mexanizmlar ham joriy etilmog'unda. Xususan, shubhali tranzaksiyalarni monitoring qilish orqali ularni tezkor to'xtatish, salbiy omillarni bartaraf etish bo'yicha taqdimnomalar kiritish hamda aholi o'rtasida tushuntirish ishlarini kuchaytirish ko'zda tutilgan.

Majlisda ta'kidlanganidek, alohida e'tibor “moliyaviy piramida” ko'rinishidagi fribgarlik sxemalariga qarshi kurashishga qaratilyapti. Bunday noqonuniy faoliyatlarni barvaqt aniqlash va ularga chek qo'yish bo'yicha samarali mexanizmlar joriy etilmog'unda.

Qonun loyihasi yuzasidan aniqlashiruvchi savollar ko'tarildi, fikr-mulohazalar bildirildi. Muhokama yakuniga ko'ra, qonun loyihasi birinchi o'qishda qabul qilindi.

Shaxsiy ma'lumotlarni tarqatganlik uchun javobgarlik kuchaytirilmoqda

Deputatlar kiberxavfsizlikni ta'minlash va raqamli muhitda sodir etilayotgan huquqbuzarliklarga qarshi kurashish tizimini takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihasini birinchi o'qishda ko'rib chiqdi.

Bugungi kunda aholiga bank va to'lov tizimlari orqali pul o'tkazmalari bilan bog'liq amaliyotlarni bajarish uchun katta qulayliklar yaratilgan. Shu bilan birga, axborot texnologiyalaridan foydalanib, qo'llash ko'lamini kengaytirish, jinoyatlarining barvaqt oldini olish, ularni fosh etish mexanizmini takomillashtirish, fuqarolarning bank karta hisobvaraqidagi pul mablag'larini turli kiberhujumlardan himoyalash tizimini kuchaytirishga zarurat tug'ilmoqda.

Deputatlar tomonidan muhokama etilgan qonun loyihasi bilan bank kartalari, elektron va kriptohamyonlar hamda ularni boshqarish imkonini beruvchi ma'lumotlarni qonunga xilof ravishda boshqa shaxslarga berganlik uchun ma'muriy va jinoiy javobgarlik belgilanmoqda.

Shuningdek, SIM-kartalar, shaxsiy akkauntlar va identifikatsiya vositalarini boshqa shaxslarga noqonuniy berish yoki ularidan foydalanish holatlari uchun ham javobgarlik choralari kuchaytirilyapti.

Loyihada muhim axborot infratuzilmasi obyektlarida kiberxavfsizlik talablariga rioya etilmaganlik uchun ma'muriy javobgarlik belgilanyapti. Bank va to'lov tashkilotlarida axborot xavfsizligi talablariga amal qilinmagani sababli yuzaga kelgan zararni banklar va to'lov tashkilotlari tomonidan qoplash mexanizmi joriy etilmog'unda.

Axborot texnologiyalaridan foydalanib sodir qilingan jinoyatlar uchun jazo choralari kuchaytirilmog'unda. Tergov organlariga bank ma'lumotlarini taqdim etishning aniq muddatlarini belgilash hamda ushbu talablarni buzganlik uchun javobgarlik choralari qat'iyashtirish taklifi ilgari surilmog'unda.

Saydullo AZIMOV,
O'zLiDeP fraksiyasi a'zosi:

– Qonun loyihasining samaradorligini oshirish maqsadida ayrim jihatlarga e'tibor qaratish lozim. Jumladan, loyihaga muvofiq Jinoyat kodeksining 56-moddasiga ommaviy axborot vositalari, telekommunikatsiya tarmoqlari yoki Internet jahon axborot tarmog'idan foydalangan holda jinoyat sodir etish jazoni og'irlashtiruvchi holat sifatida kiritilmog'unda. Biroq amalda og'irlashtiruvchi holat mavjudligi modda sanksiyasida belgilangan jazodan og'irroq jazo tayinlash imkonini bermaydi.

Ayni paytda, ayrim jinoyat turlari tabiatan axborot texnologiyalari orqali sodir etiladi. Masalan, soliq hisobotlari faqat elektron shaklda taqdim qilinadi va soliq obyektlarini yashirish bilan bog'liq qilmishlarda mazkur holat har doim mavjud bo'ladi. Bu esa amaldagi rag'batlantiruvchi normalarni qo'llashda muammolar keltirib chiqarishi mumkin. Xususan, Jinoyat kodeksining 571-moddasiga ko'ra, shaxs o'z aybini tan olib, chin ko'ngildan pushaymon bo'lsa, jinoyatni oshishga faol yordam bersa hamda yetkazilgan zararni ixtiyoriy ravishda bartaraf etsa, agar uning harakatlarida jazoni og'irlashtiruvchi holatlar mavjud bo'lmasa, unga tayinlanadigan jazo eng ko'p muddati yoki miqdorining uchdan ikki qismidan oshmasligi lozim. Demak, 56-moddaga kiritilayotgan yangi holat kelgusida mazkur rag'batlantiruvchi normani qo'llashga to'sqinlik qilishi mumkin.

Shu munosabat bilan, qonun loyihasini ikkinchi o'qishga tayyorlash jarayonida qayd etilgan holatlarni atroflicha tahlil qilish zarur bo'ladi.

Muhokamadan so'ng qonun loyihasi konseptual jihatdan birinchi o'qishda qabul qilindi.

Milliy mahsulotlarning xalqaro bozorlarga chiqish imkoniyatlarini kengaytirish

Majlisda davlat veterinariya nazoratini takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihasi birinchi

o'qishda konseptual jihatdan obdan muhokama qilindi.

Ushbu qonun loyihasi milliy qonunchilik hujjatlarini xalqaro me'yorlar bilan integratsiyalashtirishda juda muhim. U amaldagi qonunni Jahon savdo tashkilotining Sanitariya va fitosanitariya choralari to'g'risidagi bitimiga, Jahon hayvonlar sog'lig'i tashkiloti talablariga muvofiqlashtirmog'unda. Veterinariya nazorati samaradorligini oshirish nazarda tutilmoqda.

Hujjatda antibiotik va zararli moddalar monitoringi, xavfli erta aniqlash va uni kamaytirish tartiblari belgilanmoqda. Veterinariya tovarlarini ishlab chiqarish, tayyorlash, saqlash va realizatsiyasida xavfli tahlil qilish va boshqarish davlat veterinariya xizmati tomonidan amalga oshirilishi taklif etilmog'unda.

Davlat veterinariya xizmatiga yuqumli kasalliklar bo'yicha hududlar (kichik hududlar) va xavfsizlik toifasini belgilash vakolati berilmog'unda. Bu yuqumli kasalliklarni erta aniqlash, ular tarqalishining oldini olish, pirovardida aholi salomatligini mustahkam himoya qilishning aniq huquqiy asosini yaratadi.

Ushbu qonun loyihasi bilan hududlarni epizootik holatga qarab toifalash taklif etilyapti. Laboratoriya nazorati kuchaytiriladi. Veterinariya dori vositalari muomalasi ustidan qat'iy monitoring o'rnatiladi.

Qonun loyihasi veterinariya sohasida yagona va aniq tamoyillarni shakllantiradi. Davlat nazoratining ochiqligi va samaradorligini mustahkamlaydi.

Majlisda qonun loyihasi deputatlar tomonidan birinchi o'qishda qabul qilindi.

Vazirga parlament so'rovi yuborildi

Deputatlar qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vaziri Sh. Hidayatovga “Aholi punktlarining shaharsozlik hujjatlariga shaharsozlik faoliyati subyektlari tomonidan rioya etilishi ustidan davlat arxitektura nazoratini amalga oshirish borasida olib borilayotgan ishlar to'g'risida”gi parlament so'rovini yuborish haqidagi masalani ko'rib chiqdi.

Ta'kidlanganidek, mamlakatimizda ushbu yo'nalishda zarur chora-tadbirlar amalga oshirilmog'unda. O'zboshimchalik bilan qurilgan imoratlarini aniqlash, ular bilan bog'liq qonunbuzilishlarni bartaraf etish bo'yicha choralarni kuchaytirishga alohida e'tibor qaratilyapti.

Shu bilan birga, Qonunchilik palatasi deputatlarining saylov okruglaridagi uchrashuvlari va hududlarda o'tkazilgan nazorat-tahlil tadbirlari davomida sohada hali o'z yechimini kutayotgan qator masalalar mavjudligi aniqlandi. Jumladan, Toshkent shahridagi o'rganishlar chog'ida ayrim hollarda shaharning bosh rejasiga zid ravishda qurilish ishlar olib borilayotgani ma'lum bo'ldi.

Majlisda yuqoridagilardan kelib chiqib, vazirlik tomonidan shaharsozlik to'g'risidagi qonunchilik hujjatlariga qat'iy rioya etilishini ta'minlash, o'zboshimchalik bilan qurilgan imoratlarini aniqlash va bartaraf qilish borasida amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan asoslantirilgan tushuntirishlar berish haqida qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vaziriga parlament so'rovi yuborildi.

Yo'l harakati xavfsizligini ta'minlashda mas'ullik

Majlisda ichki ishlar vaziri A. Toshpo'latovga “Avtomobil yo'llaridagi foto-video qayd etish texnika vositalarining yo'l harakati xavfsizligini ta'minlashdagi samaradorligi hamda yo'l harakati sohasiga axborot texnologiyalarini joriy etish borasida amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida”gi parlament so'rovini yuborish haqidagi masala ham ko'rib chiqildi.

Keyingi yillarda mamlakatimizda yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash borasida keng ko'lami ishlar amalga oshirilib, ushbu sohaga oid munosabatlarni tartibga soluvchi mustahkam huquqiy baza yaratildi. Xususan, “Yo'l harakati to'g'risida”gi Qonun hamda Prezidentimizning qator qarorlari qabul qilindi.

Yo'l-transport hodisalarining oldini olish, yo'l harakati ishtirokchilarining mas'uliyatini oshirish va nazorat tizimini samarali olib borish maqsadida avtomobil yo'llariga zamonaviy kameralar va radarlar o'rnatilmog'unda. Ular yo'l harakati ishtirokchilarining qoidalariga rioya etilishini nazorat qilishda samarali vosita hisoblanib, haydovchilarning mas'uliyatini kuchaytirishga, qoidabuzarliklar va yo'l-transport hodisalarini soni kamayishiga hamda sohada korrupsiya holatlarining oldini olishga xizmat qilmoqda.

Shu bilan birga, Qonunchilik palatasi deputatlarining saylov okruglarida fuqarolar bilan o'tkazilgan muloqotlari va uchrashuvlari davomida transport vositalari haydovchilari tomonidan sodir qilingan qoidabuzarliklarni aniqlovchi foto-video qayd etish texnika vositalarining yoki ko'chma fotoradlarining faoliyatini borasida ayrim e'tirozlar bildirilmog'unda.

Xususan, ruxsat berilgan tezlik ko'rsatkichlari keskin o'zgaradigan qismlarda yo'l belgilari yetarli darajada ko'rinadigan nuqtalarga o'rnatilmagan, foto-video qayd etish tizimida ma'lumotlarni qayta ishlash chog'ida jarimalarini hisoblashda texnik xatoliklarga yo'l qo'yilishi natijasida asossiz ravishda ma'muriy jazo choralari ko'lanilishi, ayrim yo'llarning sifat talab darajasida emassligi, yo'l chiziqlarining ko'rinishsizligi yoki noto'g'ri belgilangan, o'z navbatida, yo'l harakati qoidalarining buzilishiga olib kelayotgani va piyodalar yo'laklarida svetoforlar yetishmayotgani fuqarolarning haqli e'tirozlarini keltirib chiqarmoqda.

Shuningdek, Prezidentimiz raisligida yo'l harakati x

Festival

BETAKROR SAN'AT DURDONASI

Xiva shahrida "Lazgi" III xalqaro raqs festivali doirasida "Jahon madaniy taraqqiyotida raqs san'ati: an'ana va umumbashariy qadriyatlar" mavzuida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya hamda Etnomadaniyat forumi o'tkazildi.

O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi, Xorazm viloyati hokimligi, YUNESKO, TURKSOY, Xalqaro festivallari direktoriyasi, O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi hamda Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros ilmiy-tadqiqot instituti hamkorligida tashkil etilgan anjumanda dunyoning turli mamlakatlaridan kelgan tanliq san'atshunoslar, olimlar va madaniyat sohasi vakillari raqs san'atining inson hayotidagi o'rni, uning tarixiy ildizlari va zamonaviy taraqqiyot tendensiyalari haqida fikr almashdi. Milliy raqs an'analari asrab-avaylash, ularni global madaniy makonda targ'ib etish va yosh avlodga yetkazish, jumladan, "Xorazm lazgisi" raqsining estetik-etnografik xususiyatlarini o'rganish, yangi qirralarini kashf etishga e'tibor qaratildi.

– Xorazm san'atining o'ziga xos "tashrif nomasi"



bo'lgan "Lazgi" raqs uch ming yillik tarixga ega bo'lib, o'zining chuqur hayotiy falsafasi, o'xshashi yo'q ijro uslubi va jozibasi bilan butun dunyoga mashhurdir, – deydi ozarbayjonlik san'atshunos Fatima Ismailova. – "Lazgi" raqs YUNESKOning Insoniyat nomoddiy madaniy merosi ro'yxatiga kiritilgan uning betakror san'at durdonasi ekanidan dalolat beradi. Anjumanda davomida "Lazgi" raqs falsafasi va bugungi globallashuv jarayonida raqs san'atining o'rni haqida dunyoning turli burchaklaridan tashrif buyurgan hamkasblarimiz bilan qizg'in muloqot qilib, fikr almashdik.

Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya ishi "Xorazm "Lazgi" raqs: tarixiy-falsafiy va milliy-madaniy omillar", "Globallashuv sharoitida xoreografiya san'ati taraqqiyoti", "Lazgi" fenomeni: nomoddiy madaniy merosni asrashning innovatsion strategiyalari" kabi shu'balarda davom etdi. Anjumanda qator davlatlardan soha mutaxassislari "ZOOM" platformasi orqali onlayn tarzda qatnashdi.

Konferensiya doirasida soha mutaxassislari, san'atshunos olimlar va tadqiqotchilar tomonidan jahon xalqlari san'ati, o'zbek milliy raqs san'ati tarixi, "Lazgi" raqsining shakllanish bosqichlari, estetik-etnografik xususiyatlari, milliy-madaniy jihatlari, marosim va folklor raqslari, ularning ifoda uslublari, raqs ta'limi, musiqa madaniyati hamda zamonaviy san'atshunoslik masalalariga oid 200 dan ortiq ilmiy maqolalar taqdim etildi. Ular saralab olinib, nashrga tavsiya qilindi.

Etnomadaniyat forumida asosiy maqsad – Markaziy Osiyo va Rossiya xalqlarining etnomadaniy merosini o'rganish, asrab-avaylash va keng targ'ib qilish asosida madaniy diplomatiyani rivojlantirish, o'zaro ijodiy aloqalarni mustahkamlash, madaniyat va san'at sohasida ko'p tomonlama hamkorlikni kengaytirish, shuningdek, yoshlar va keng jamoatchilik o'rtasida madaniy o'zlikni anglash hamda milliy qadriyatlarga hurmat tuyg'usini kuchaytirishga qaratildi.

Forum doirasida ilmiy-amaliy konferensiya o'tkazilib, unda Markaziy Osiyo mamlakatlari va Rossiyadan kelgan madaniyatshunoslar, etnografik olimlar hamda soha ekspertlari etnomadaniy merosni asrash va rivojlantirish masalalari yuzasidan fikr almashdi.

Urganch shahridagi Madaniyat markazida Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston, O'zbekiston va Rossiya davlatlarining raqs jamoalari ishtirokida katta konsert dasturi bo'lib o'tdi.

Mazkur forum mintaqada madaniy-gumanitar hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqish, xalqlar o'rtasidagi do'stlik va o'zaro ishonchni yanada mustahkamlash, shuningdek, barqaror madaniy muloqot platformasini shakllantirishga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

"Lazgi" III xalqaro raqs festivali doirasidagi tadbirlar davom etmoqda.

Odilbek ODAMBOYEV
("Xalq so'zi").



Mamlakatimiz ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan keng ko'lami islohotlar samarasi o'laroq, bugungi kunda maktabgacha ta'lim tizimida qamrov darajasi 74 foizga yetdi. Vaholanki, 9-10 yil ilgari bu ko'rsatkich atigi 27 foizni tashkil etardi. Bundan tashqari, o'qituvchilar bilim darajasi va nufuzi oshib, oylik maoshlari o'rtacha 3-4 baravarga ko'paydi. Oliy ta'lim muassasalari soni 210 tadan oshgani ham bu sohaga qaratilayotgan e'tibor ifodasidir. Bugun yurtimizda dunyo reytingida nufuzi baland xorij universitetlarining filiallari faoliyat olib boryapti va bu o'g'il-qizlarimizning jahon standartlari darajasida bilim olishiga imkon yaratmoqda.

Nuqtai nazar

Davlatimiz tomonidan ta'lim sohasiga ajratilayotgan mablag'lar hajmi ham yil sayin ortib bormoqda. 2025-yilda byudjet xarajatlarning 52 foizi ijtimoiy soha uchun ajratilgan bo'lsa, uning eng katta qismi ta'limga yo'naltirildi.

Yoshlarni ilmiy qilish uchun tikilgan sarmoya kelajakka qo'yilgan investitsiyadir. Shu jihatdan o'tmishga nazar tashlasak, millatning ma'naviy yuksalishi, avvalo, ilm va ma'rifatga e'tibordan boshlanganiga guvoh bo'lamiz.

Ajodlarimiz ilmni farz bilgan

VIII – XI asrlarda Buxoro ta'lim tizimining shakllanish jarayoniga nazar tashlasak, bilim olish dastlab masjidlar huzuridagi umumiy-aralash ta'lim shaklida yo'lga qo'yilganini ko'ramiz. Keyinchalik bu jarayon bosqichma-bosqich takomillashib, boshlang'ich ta'limga ixtisoslashtirilgan maktablar hamda o'rta va oliy bosqichni qamrab olgan madrasalar tizimiga ko'chdi. Markazlashgan ta'lim muassasalari bilan bir qatorda, jamiyatning turli madaniy makonlari ham ilm-ma'rifat rivojida muhim o'rin tutgan. Xususan, kitob do'konlari, kutubxonalar, karvonsaroylar, rabotlar, xonaqohlar va shifoxonalar nafaqat olimlar va talib ilmlar uchrashadigan joy, balki o'ziga xos ta'lim markazlari sifatida ham faoliyat yuritgan. Bu o'z davrida Buxoroning nafaqat siyosiy yoki iqtisodiy, balki yirik ilmiy-ma'rifat markaz sifatida shakllanganini ko'rsatadi.

Bu davrdagi Buxoro ta'lim tizimining shartli ravishda bir nechta bosqichga ajratish mumkin. Xususan, boshlang'ich ta'lim, asosan, masjidlar va maktablarda, shuningdek, xususiy o'qituvchilar huzurida yo'lga qo'yilgan. Unda savod chiqarish, Qur'on o'qish va odob-axloq asoslari o'rgatilgan. O'rta va oliy ta'lim esa masjidlar, madrasalar,

turli madaniy makonlar hamda ilmiy yig'inlar doirasida amalga oshirilgan. Bu bosqichda fiqh, mantiq, tilshunoslik, falsafa kabi fanlar chuqur o'rganilgan. Shuningdek, ta'limning yana bir muhim shakli – alohida ustozlar huzurida tahsil olish va ilm talabida xorijga safar qilish orqali uddalangan oliy maxsus ta'lim hisoblanadi. Bu yo'nalishda talabalar o'z sohasining yetuk ulamolardan saboq olib, bilim va tajribalarini yanada boyitgan.

O'rta asrlar xristian Yevropasida ta'lim deb, birinchi navbatda, diniy ilmlar anglashilgani sababli ilk tizimli ta'lim ham aynan cherkovlar huzurida boshlangan. Ilk oliy o'quv muassasalari ham dastlab faqatgina diniy bilim berishga mo'ljallangan. Samarqand davlat universiteti rektori, Oliy Majlis Senati a'zosi Rustam Xolmurodov "Xalq so'zi" gazetasi muxbiri bilan suhbatda universitetlarning barchasi dastlab diniy ta'lim muassasalari bo'lgani, davrlar o'tishi bilan ularda dunyoviy fanlar o'qitila boshlanganini aytgandi.

Musulmon sharqida ham shunga o'xshash holat kuzatilgan. Islom davrining boshlarida Buxoro madrasalar nafaqat boshlang'ich ta'lim oladigan markazlar vazifasini bajargan, balki ularda o'rta va oliy ta'lim jarayonlari ham amalga oshirilgan. Bunda turli diniy va dunyoviy ilmlarni egallagan kishilar madrasaning alohida ajratilgan joylarida talabalariga dars berishgan.

Yirik kutubxona va ilk madrasa

IX-X asrlardan boshlab ayrim mudarrislar ibodat joyi bo'lmish masjidga ajratish mumkin. Xususan, boshlang'ich ta'lim, asosan, masjidlar va maktablarda, shuningdek, xususiy o'qituvchilar huzurida yo'lga qo'yilgan. Unda savod chiqarish, Qur'on o'qish va odob-axloq asoslari o'rgatilgan. O'rta va oliy ta'lim esa masjidlar, madrasalar,

davlatida qaror topgan qarashlar erkinligi va diniy bag'rikenglik muhiti ilm o'rganishga ishtiyoqning kuchayishiga, bu esa, o'z navbatida, Buxoroda katta kutubxona va ilk madrasalarga asos solinishiga olib keldi. Umuman, islom dunyosida madrasa tashkilotlashgan ta'lim muassasasi sifatida ilk bor Somoniylar davlati hududida vujudga keldi.

Ko'pchilik tarixchilar islom dunyosidagi ilk tizimli madrasa Saljuqiylar davlati (1037 – 1194) vaziri Nizom ul-mulk (1018 – 1092) tashabbusi bilan 1066-yili Bag'dod shahrida barpo etilgan deb bilishsa-da, manbalarda ushbu ilk madrasa ochilishidan ancha oldin ham Buxoroda tizimli madrasalar faoliyat ko'rsatgani aytiladi. Jumladan, eronlik sharqshunos-mambashunos olimi Farahnoz Kuhan Abu Hafs Kabir madrasasini Buxorodagi ilk madrasa, deb biladi. O'zbek sharqshunos olimi Abduvattor Jumanazarning ta'kidlashicha, Abu Hafs Kabir

madrasasi, X asr o'rtalaridan esa Xon hammomi yaqinidagi madrasa faoliyat ko'rsatgan. Bulardan tashqari, Somoniy Buxoro shahridagi "Darb al-hadid" ("Temir darvoza") mahallasida joylashgan X asr boshlarida yoki o'rtalarida tashkil topgan Imom Abu Bakr ibn Fazl madrasasi to'g'risida ma'lumot beradi. Abduvattor Jumanazar Sadr Ziyoning "Tarixi osoriyotga va binohoyi qadimi Buxoro sharifi" ("Buxoro sharifning osoriyotlari va qadimiy binolari tarixi") asariga tayangan holda bu davrda Buxoroda Kalobod va G'arbiya madrasalari ham faoliyat ko'rsatganini eslatadi.

Umuman, Buxoro masjidlari va madrasalari talaba va mudarrisarga dars beradigan olimlar bilan to'la bo'lgan. Madrasalar ilmiy dargoh bo'lishi bilan birga, boshqa yurtlardan keladigan talabalar uchun yashash maskani ham edi.

Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, bu davrda Buxoroda ilm

Kelajakka poydevor meros

O'rta asrlar Sharqning ko'pgina o'lkalarida bo'lgani kabi ibodat maskani sifatidagi masjidlar hamda aynan ta'limga ixtisoslashtirilgan maktablar va madrasalardan tashqari ko'plab madaniy va ijtimoiy muassasalar ham u yoki bu darajada ta'lim markazlari vazifasini bajargan. O'zlarining birlamchi vazifalaridan tashqari o'zaro bilim almashish, tadqiqot va ta'lim maskanlari rolini ham bajargan muassasalarning markazida, albatta, kutubxonalar va kitob do'konlari turgan.

Movarounnahrning yirik ilm-fan va madaniyat markazlaridan bo'lgan Buxorodan yetishib chiqqan buyuk olimlarning aksariyati ilm talabida xorij safarlarida bo'lishgan. Jumladan, Abu Hafs Kabir Buxoriy Bag'dodga borib, Imom Muhammad ibn Hasan ash-Shayboniy (748 – 804) qo'lida ta'lim olib qaytadi va hanafiylik mazhabining Movarounnahr maktabiga asos soladi.

Buxoroni olamga mashhur qilgan allomalardan buyuk muhaddis Imom Buxoriy esa bir necha yil davomida Hijoz, Iroq va Eronning turli shaharlarida ko'plab muhaddislardan ta'lim oladi.

Buxorodan yetishib chiqqan olamga mashhur allomalardan yana biri Abu Ali ibn Sino shunday yo'l tutgan. Uning turli ilm sohalarining zabardast olimi bo'lib yetishishida ana shu xorij safarlarining o'rni va rolini e'tirof etmasdan bo'lmaydi. Jumladan, u Xuroson va Eronning Niso, Abivard, Tus, Samangon, Gurgon, Ray, Qazvin, Hamadon va Isfahon shaharlariga ilmiy maqsadlarda safar qilgan.

o'rganuvchilar va ilm o'rgatuvchilarning soni judayam ko'payib ketgan. Buxoro madrasalarida faqatgina diniy ilmlar emas, balki dunyoviy fanlar ham o'qitilgan. Masalan, manbalarda keltirilishicha, Qozi Abdurazzoq al-Buxoriy o'z mahallasi madrasasida tibbiyot va matematikadan dars bergan.

VIII – XI asrlarda Buxoro shahrida shakllangan, keyinchalik zaminimizning boshqa shaharlari va diyorlariga ham yoyilgan mu'ammal, samarali oliy ta'lim tizimi IX – XII asrlarda yuz bergan Birinchi Uyg'onish davridagi misilsiz ilm-fan va madaniyat taraqqiyoti uchun asos bo'lsa, XIV-XV asrlarda yuz bergan Ikkinchi Uyg'onish davri uchun esa namuna hamda turkiy vazifasini bajargani ma'lum. Bu oliy ta'lim tizimi tarixiga faqatgina meros sifatida emas, balki Yangi O'zbekiston sharoitida shakllanayotgan Uchinchi Rennessansning mustahkam poydevori, ilmiy-amaliy tayanchi sifatida yondashish zarur. Shu bois uni har tomonlama chuqur o'rganish, zamonaviy yondashuvlar asosida tahlil qilish va keng jamoatchilikka samarali tarzda targ'ib etish maqsadga muvofiqdir.

Obidjon HAMIDOV,
Buxoro davlat universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,
Komiljon RAHIMOV,
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti yetakchi ilmiy xodimi, tarix fanlari doktori (DSc), professor.

Zamonaviy sport inshooti yoshlar ixtiyorida

Qarshi shahrida davlatimiz rahbari tashabbusi bilan O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi tomonidan barpo etilgan zamonaviy yopiq suv sporti saroyi foydalanishga topshirildi.

Bunyodkorlik

– Bundan qariyb ikki yil avval Prezidentimiz poytaxtimizning Yakkasaroy tumanida barpo etilgan suv sporti saroyi bilan tanishar ekan, bunday zamonaviy sharoitlar faqatgina poytaxtda emas, mamlakatimizning barcha hududlari, xususan, Qashqadaryoda ham bo'lishi kerak degan tashabbusni ilgari surgan edi, – dedi majmuaing tantanali ochilish marosimida qatnashgan O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi raisi Qudratilla Rafiqov. – Ushbu saroyning bunyod etilishi yurtimizda inson qadrini ulug'lash va manfaatlarini ta'minlash, sog'lom turmush tarzini qaror toptirish yo'lidagi keng ko'lami xayriy ishlarining amaliy natijasidir.

Marosim ishtirokchilari to'liq jahon andozalari asosida barpo etilgan, suv sporti bo'yicha yirik xalqaro musobaqalarni ham qabul qila oladigan



muhtasham majmua yaratilgan shart-sharoitlar bilan tanishishdi.

Zamonaviy majmua 2 gektar hududni egallagan bo'lib, uning tarkibida 50x21 metr o'lchamli suzish havzasi, 16x16 o'lchamli, 10 metr balandlikdan suvga sakrash uchun mo'ljallangan havza, balandlikdan sakrash minoralari va mahorat mashqlari uchun quruq basseyn, shuningdek, bolalar uchun mo'ljallangan ikkita hovuz mavjud. Bundan tashqari, yopiq suzish havzasi, ma'muriyat, mediazona, fitness hamda yig'ilish zallari ham barpo etilgan. Infratuzilma doirasida 700 o'rinni tomoshabinlar tribunasi, keng xoll, dush va kiyim almashtirish xonalari va dam olish hududlari mavjud.

E'tiborlisi, majmua ga o'rnatilgan barcha uskuna hamda jihozlar dunyoning yetakchi, ishonchli va

mashhur ishlab chiqaruvchi kompaniyalari tomonidan tayyorlangan bo'lib, yuqori sifat, energiya samaradorligi hamda ilg'or texnologiyalar talablariga to'liq javob beradi.

– Bugun bu yerdagi sharoitlarni ko'rib, qalbm fargga to'ldi, – deydi Qarshi shahridagi Yangi Bog'obod mahallasi faoli Nodirbek To'yliyev. – Yoshlarimiz uchun shunday imkoniyatlar yaratib berilyaptiki, ko'rib ko'z quvonadi. Bu, albatta, yurtimizdagi tinchlik, Prezidentimiz tomonidan olib borilayotgan oqilona siyosat samarasi, deb bilaman.

Tantanali tadbirda sinxron suzish bo'yicha mahoratli sportchilarning ko'rgazmali chiqishlari namoyish etildi.

Jahongir BOYMURODOV
("Xalq so'zi").

"Suv parisi – 2026"

Tinchlik va do'stlik tarannumi

O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi tomonidan O'zbekiston suv sporti federatsiyasi va Sport vazirligi bilan hamkorlikda 26-27-aprel kunlari "U-12", "U-15" hamda kattalar yosh toifalaridagi sportchilar o'rtasida sinxron suzish bo'yicha "Suv parisi – 2026" ochiq xalqaro turniri o'tkazildi.

Markaziy Osiyoda yagona – Olimpiya shaharchasining Suv sporti turlari saroyida tashkil etilgan ushbu bellashuvlarda O'zbekiston, Qozog'iston, Rossiya, Belarus Respublikasidan jami 200 nafarga yaqin sportchilar qatnashib, o'z mahoratlarini namoyon etdi. O'zbekiston sharafini himoya qilish uchun esa 75 nafar sportchi bellashuvga kirishdi.

Musobaqalarning tantanali ochilish marosimida bu kabi keng ko'lami va yirik xalqaro sport turnirining o'tkazilayotgani Prezidentimizning mamlakatimizda sportning, jumladan, suv sporti turlarini rivojlantirishga qaratayotgan yuksak e'tibori natijasi ekanini alohida e'tirof etildi.

– Ta'rifga toj olib, zamonaviy Olimpiya shaharchasi xalqaro standartlarga mos majmua bo'libdi, – deydi sinxron suzish bo'yicha Rossiya terma jamoasi murabbiyi Kristina Kazimova. – Bu

yerda kelgusida ham yirik xalqaro turnirlar o'tkazilishiga ishonamiz. Musobaqalarda xalqaro oliy toifali hakamlar ishritiroki esa uning shaffof va adolatli o'tishini ta'minladi. Biz bundan o'zimiz uchun ham tajriba orttirdik.

Musobaqalar davomida texnik solo, texnik va erkin miks duet, texnik duet, texnik guruh, erkin duet, miks duet, akrobatik guruh, birlashgan guruh, erkin yakkalik, erkin guruh kabi yo'nalishlarda g'oliblar aniqlandi.

Yakuniy natijalarga ko'ra, medallarning umumiy soni bo'yicha o'zbekistonlik sportchilar jami 22 ta, xususan, 11 ta oltin, 9 ta kumush va 2 ta bronza medallarni qo'lga kiritib, 1-o'rinni egalladi. Rossiyalik sportchilar 14 ta medal bilan 2-o'rinni, qozog'istonlik sportchilar jami 13 ta medalni naqd qilib 3-o'rinni, belaruslik sportchilar esa 6 ta medalga sazovor bo'lib, 4-o'rinni qo'lga kiritdi.

"Xalq so'zi".

Endilikda ruhiy holati buzilgan nogironligi bor shaxslarni mustaqil hayotga tayyorlashga qaratilgan "Murabbiy kuzatuvda" mustaqil yashash xizmati yo'lga qo'yiladi.

Xalq so'zi Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

Bosh muharrir O'tkir RAHMATOV

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi – 229. Buyurtma G-1242. 25 499 nusxada bosildi. Hajmi – 2 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; Kotibxona 71-259-74-53;
e'lonlar 71-259-74-55.



Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqzir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun ohunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida teriladi hamda operator A. Ismailov tomonidan sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul.
Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir N. Ostonov.
Musahhih S. Islomov.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxonada manzili:
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni – 20.30 Topshirildi – 23.40 1 2 3 4 5 6